

INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA GEOGRAFIK BILIMLARNI
SHAKLLANTIRISH
(7-SINF DARSLARI MISOLIDA)

F.S.Meliboyeva

Qo'qon DU, Geografiya va iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi, g.f.f.d (PhD)

K.A.Aliyeva

*Qo'qon DU, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi 4-bosqich
talabasi.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 7-sinf geografiya darslarida interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarda geografik bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish masalalari ilmiy-uslubiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilish faolligini oshirishi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, interaktiv usullar, 7-sinf, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida o'quvchilarga berilayotgan bilimlarning mazmuni va sifatini oshirish, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ta'lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanish o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotni tashkil etish va uni boshqarishni talab etadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar o'zaro hamkorlik asosida faoliyat olib borib, jamoa uchun ham, har bir o'quvchi uchun ham ahamiyatli bo'lgan muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Natijada o'quvchilarda bir-birini tushunish, jamoada ishlash va hamjihatlik muhiti



shakllanadi. Interaktiv usullar asosida tashkil etilgan darslarda alohida o'quvchining ustunlik qilishi va o'z fikrini majburan ilgari surishiga yo'l qo'yilmaydi, barcha o'quvchilarning teng va faol ishtiroki ta'minlanadi. Shuningdek, interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, turli axborot manbalarini tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarga yechim topish, tengdoshlarining fikrlarini baholab, asoslangan xulosalar chiqarish, munozaralarda faol qatnashish hamda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [2].

Asosiy qism. Interaktiv usullar – bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida faol muloqotga asoslangan, hamkorlikda o'rganishni tashkil etuvchi pedagogik metodlar majmuasidir. Ushbu metodlar o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirib, geografik tafakkurni shakllantirishga yordam beradi. 7-sinf geografiya kursida tabiiy geografiya asoslari, Yerning geografik qobig'i, atmosfera, iqlim, gidrosfera, materiklar va tabiiy zonalar kabi mavzular o'rganiladi. Ushbu mavzularni o'zlashtirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

BBB jadvali (“Bilaman – Bilishni xohlayman – Bilib oldim”) mavzu, matn yoki bo'lim bo'yicha izlanish olib borish imkonini beradi. Ushbu metod orqali o'quvchilar mazkur jadvalni tuzish qoidalari bilan tanishadilar hamda kichik guruhlarda uni rasmiylashtiradilar. Dastlab o'quvchilarga “Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz?” va “Nimani bilishni xohlaysiz?” kabi savollar berilib, keyingi faoliyat uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi. Shu bosqichda jadvalning birinchi va ikkinchi bo'limlari to'ldiriladi [3].

Keyingi bosqichda o'quvchilar ma'ruzani tinglaydilar yoki matnni mustaqil o'rganadilar. O'quv jarayoni yakunida esa mustaqil yoki kichik guruhlarda ishlash orqali jadvalning uchinchi — “Bilib oldim” bo'limi to'ldiriladi.

Mavzuga oid asosiy Tushunchalar	Bilama n	Bilib oldim	Bilishni hoxlayman

Geografik qobiq va uning chegaralari			
Geografik qobiqning xususiyatlari			
Geografik qobiqning tarkibiy qismlari			
Geografik qobiq tarkibiy qismlarini o'zaro ta'siri			

“**Aqliy hujum**” **metodi** – ushbu metodning asosiy maqsadi ma’lum bir vaqt oralig‘ida iloji boricha ko‘proq g‘oyalarni yig‘ishdan iborat. Barcha takliflar katta qog‘oz yoki doskaga izohsiz yoziladi [4].

Metodning asosiy xususiyatlari:

- Guruh hajmi va xilma-xilligi cheklangan (odatda 20 kishidan oshmasligi tavsiya etiladi);
- O‘quvchilar bir-birining g‘oyalarni tinglab, rivojlantirishga o‘rganadilar;
- “O‘ylamasdan” bildirgan g‘oyalar yoki hazil takliflar rag‘batlantiriladi;
- Tanqid yoki baholashga yo‘l qo‘yilmaydi;
- Amal qilish vaqti cheklangan bo‘ladi.

Mavzu: Litosfera va uning harakatlari

Ma’qsad: O‘quvchilarga litosfera harakatlari (tektonik plitalar harakati, zilzila, vulqon faolligi) haqida asosiy tushunchalarni shakllantirish, izlanish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars jarayoni (Aqliy hujum metodi bilan):

1. **Boshlang‘ich savol:** “Litosfera harakatlarining odamlar va yer yuzasiga ta’sir qiluvchi omillari nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?”
2. **Guruhlash:** O‘quvchilar 3-4 kishilik kichik guruhlariga bo‘linadi.
3. **Fikrlar yig‘ish:** Har bir guruh 5 daqiqa ichida barcha g‘oyalarni qog‘ozga yoki doskaga yozadi.



- ✓ Masalan: zilzila xavfi, vulqon otilishi, tog' hosil bo'lishi, yer silkinishi, yangi orollar paydo bo'lishi, yer sathining deformatsiyasi.

4. Qoidalar:

- Tanqid yoki baholash yo'q;
- Har bir g'oya qabul qilinadi, hatto noodatiy va hazil variantlar ham;
- Guruh a'zolari bir-birining g'oyasini rivojlantiradi.

5. **Natijani umumlashtirish:** O'qituvchi guruhlarining barcha fikrlarini jamlab, litosfera harakatlari va ularning tabiiy hamda inson faoliyatiga ta'siri bo'yicha xulosa chiqaradi.

6. **Mustaqil ishlash:** O'quvchilar matndan qo'shimcha ma'lumotlarni o'qib, jadval yoki diagramma shaklida harakat turlarini tasniflaydilar.

Natijalar va muhokama

Interaktiv usullar asosida tashkil etilgan darslar natijasida o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishi oshdi, dars jarayonidagi faolligi kuchaydi. O'quvchilar litosfera harakatlarini aniqlash, ularning natijalarini tahlil qilish, xavf va foyda jihatlarini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Guruhda hamkorlik va izlanish asosida bilim olish tajribasi shakllanadi. Kuzatishlar va nazorat ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning geografik tushunchalarni anglash darajasi an'anaviy usullarga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Ayniqsa, sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham darsda ishtiroki faollashgani kuzatildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 7-sinf geografiya darslarida interaktiv usullardan samarali foydalanish o'quvchilarda geografik bilimlarni shakllantirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, geografiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vahobov H., Alimqulov N., Sultanova N. “Geografiya o‘qitish metodikasi”. Toshkent 2020.
2. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X. va boshq. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. Toshkent 2009
3. Meliboyeva F.S., Muhamadaliyeva D. “Use of non-standart tests to assess students knowledge in geography classes”. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary scienses 3 (31), 11-16.
4. Meliboyeva F.S., Xolmurodova M.O. “The importance of interaktive software tools in increasing the effectiveness og geography edication”. Экономика и социум №11 (113)-2 2023.

